



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR
№35

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
15-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-15**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Xomidova Nozimaxon Fayozbekovna	
XOR SAN'ATINING ISTIQBOLI QANDAY?	7



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

XOR SAN'ATINING ISTIQBOLI QANDAY?

Xomidova Nozimaxon Fayozbekovna

O'zbekiston davlat konservatoriyasining

“Akademik xor ijrochiligi” yo'naliشining 4-bosqich talabasi
Telefon: +998916116436 xamidova.nozimaxon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada muallifning xor san'ati va xor jamolarining hozirgi kundagi rivojiga doir fikr-mulohazalari va amaliy tavsiyalari misollar vositasida taqdim etilgan. Adabiyotlar ro'yhatida ko'rsatilgan, ijtimoiy tarmoqlardagi manzillarga qilingan havolalar qo'shimcha ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, xor san'ati, xorshunoslik, orkestr, talaba, yoshlar, mas'uliyat, musiqiy adabiyotlar, xonanda, dirijor, xormeyster, xor jamoasi, konsert, maqsad.

Xor - bu xonandalarning tashkillashtirilgan jamoasi... – ijrochilik faoliyatining asosiy maqsadi xalq ommasini g'oyaviy-badiiy va estetik jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan ijodiy jamoadir.

(K.K. Pigrov)

Musiqa – bu shunday san'atki, uni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, lekin har bir tirik mavjudotning his-tuyg'ularini o'zida mujassam qila oladi. Buyuk faylasuf Platon ham musiqa to'g'risida shunday fikr yuritgan: “Musiqa – butun olamni ilhomlantiruvchi, ruhingizni ko'rinas qanotlar bilan ta'minlovchi, tasavvuringizni parvoz etishiga ko'maklashuvchi omil. Musiqa bor narsaga hayot va quvonch baxsh etadi. Uni go'zal va ulug'vor narsalarning timsoli deyish mumkin” [6]. Darhaqiqat, musiqa hayotimizning bir qismidir. Musiqa butun atrofimizni o'rab turadi va hayotimizning har bir vaqtini mazmunli o'tkizishga yordam beradi.

Har bir kompozitorning asarlariga nazar tashlaganimizda, u yashagan davr, uning ichki kechinmalari, asar yaratishdagi mahorati, o'sha cholq'u asboblariga qo'yan mehri va, eng asosiysi, musiqaga bo'lgan muhabbatini, ishtiyoqini ko'rsak bo'ladi. Bunday durdonalarni ijro etadigan har bir ijrochi, bastakor yaratgan olamga tushib qoladi. Uning go'zal va betakror fikrlarini tushunishga harakat qiladi va ijro etadi. Shu ijrosi orqali esa tinglovchilarga asarning butun mohiyatini yetkazib beradi.

Musiqa san'atining juda ham ko'p qirralari, janrlari mavjuddir. Har birining o'ziga yarasha ko'rinishlari bor, har biri ijro uslubi va boy ohangiga ega. Bularning ichida xor san'ati esa eng jozibali va betakror desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Buyuk kompozitor va xormeyster G.A. Struve shunday degan:

“Xor – bir yo'naliшha qaratilgan va uyg'un nafas olishga asoslangan ideal jamoa. Atrofdagilarni eshitishi, bir-birini tinglashi muhim bo'lgan bir oiladir. Bunda individuallik yo'qotilmaydi, aksincha, to'liq namoyon bo'ladigan jamiyat prototipidir. Xorda birligda kuylash - xalq salomatligining ishonchli ko'rsatkichi. Ma'naviyatli qo'shiq bilan tarbiyalangan xalq buyukdir” [5]. Xor san'ati ommani vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga, kishilarni xalq qo'shiqlari ijodiyoti durdonalari, o'zbek va chet el mumtoz vokal - xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi, ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Xor shunday bir san'atki, unda adabiy va musiqaiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib, yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, har bir xalqning milliy musiqa madaniyati shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab kelgan.

Xususan, yurtimiz kishilarida ham kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Shu jumladan jamoa bo'lib kuylash turli janrdagi xalq qo'shiqlarini ijro etishda an'anaga aylanib qolgan. Shu sababli havaskor xor jamoalarining paydo bo'lishida ham



milliy an'analarimiz va xalq qo'shiqlarimizning ijro uslubi o'ziga xos ta'sir o'tkazdi. Havaskor jamoalari lapar, marosim qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodini bir ovozli (unison) tarzda kuylagan. Yurtimizda mahoratli xor jamoalarining shakllanishi esa, XX asrning 50-yillarida boshlangan va hozirgi kungacha davom ettirib kelmoqda. Bularga misol qilib: Respublikda xizmat ko'rsatgan xor jamoasi, O'zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg'ular orkestri jamoalari birlashmasi (sobiq O'zteleradio xori), O'zbekiston davlat akademik xor kapellasi, O'zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg'ulari orkestr jamoalari birlashmasi, O'zbekiston davlat konservatoriysi qoshidagi musiqiy teatr studiyasi xori, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet Davlat Akademik Katta teatri, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqiy teatri, Toshkent davlat musiqiy komediya teatri (operetta), O'zbekiston yoshlar simfonik orkestrining yoshlar xori.

O'zbekiston yoshlar simfonik orkestrining yoshlar xoriga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, orkestr 2014-yili tashkil topgan. Prezidentimizning 2017-yil 4-avgust kunida “Yoshlar simfonik orkestrini qo'llab-quvvatlash to'grisida” gi F-5009 sonli farmoyishi qabul qilgan [8]. Bu esa yoshlar simfonik orkestri faoliyatining yanada takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatdi. Kamoliddin O'rino boyev — O'zbekiston Yoshlar simfonik orkestri asoschisi, badiiy rahbari va bosh dirijori. Milliy simfonik orkestr (Davlat filarmoniyasi) bosh dirijori sifatida ham faoliyat ko'rsatgan, shuningdek, konservatoriya talabalarga saboq berib kelmoqda. Mutaxassisligi orkestr sozandasigi (g'ijjak), Opera simfonik orkestri dirijori. “O'zbekiston Respublikasida Xizmat ko'rsatgan artist” unvoni bilan mukofotlangan. Shu kunga qadar Yoshlar simfonik orkestri dirijori lavozimida ishlab kelmoqda. Hozirda esa O'zbekiston Davlat konservatoriysi rektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Orkestr turli joylarda konsert va musiqiy kechalar uyushtirmoqda. Ular bilan yelkama-yelka turgan, asarlarini jo'r bo'lib kuylagan xor jamoasi ham yuqori mahorat bilan o'zining yuksak natijalarini ko'rsatmoqda. Yoshlar simfonik orkestrining xoriga “Yoshlar xori” deb nom berilgan. Yoshlar xori ham 2016-yilning avgust oyida tashkil etilgan, lekin ungacha talabalardan xor jamoasi tuzilib, konsertlarda chiqishlar qilingan. Uning rahbarligiga O'zbekiston Davlat konservatoriyasining “Akademik ijrochilik” fakulteti “Akademik xor dirijorligi” yo'naliشining dotsenti Y.M. Xusnitdinova tayinlandi. Xor jamoasi mashhur klassik kompozitorlarning asarlarini, xalq qo'shiqlarini, zamонавиyo qo'shiqlarni kuylab, xalq ichida katta olqishga sazovor bo'ldi. Ular kuylagan asarlar o'z jarangi bilan, o'z professional yondashuvi va zamонавиyo qarashlari bilan boshqa xor jamoalaridan ajralib turadi. Shuni aytib o'tishimiz mumkinki, xor tomonidan ijro etilgan asarlar tinglovchilar qalbida o'chmas taassurot qoldiradi. Bu jamoaning boshqa xorlardan ajralib turishida yana bir jihatni borki, ular sahnada raqslar orqali, yoki sahna harakati, voqealiklar bilan asarning mazmunini keng ko'lamda yetkazib ko'rsata olishadi va bu ularning katta yutuqlaridan biridir.

Hozirda bu xorga Y.M. Xusnitdinovaning istedodli shogirdi Farog'at Sunnatilla qizi rahbarlik qilmoqda. U bilan suhbat qilganimizda, xorning tashkil topishi, xor bilan ishlash usullari, asar tanlash jarayonlari, ijrochilarning malakalari, kelajakdagi rejalar to'g'risida gapirib berdi.

Ular yoshlar jamoasi bo'lganligi uchun, repertuar tanlashda ham hozirgi kunda mashhur bo'lgan, xalqqa yoqadigan, zamонавиyo asarlar tanlab olishlari yoki klassik asarlarni hozirgi zamон talablariga mos keladigan holda xor uchun moslashtirishlari ta'kidlandi. Shuningdek, shaxsiy xoreograflar yordamida asarlar ijrosi sahna harakatlari vositasida mazmunan boyitilgani aytib o'tdi.

Xormeyster Yoshlar xor jamoasiga qo'shilmoqchi bo'lgan xohlovchilar uchun ishga olish tartiblari va talablariga ham alohida to'xtaldi. Masalan, ishga olishda, birinchi musiqiy xotiraga qaralishi, toza intonatsiya, musiqiy-nazariy bilim, asarni varoqdan o'qish qobiliyati, eshitish qobiliyati, yuz ifodalari, yuz ko'rinishi va baland bo'yga e'tibor berishlarini gapirdi. Xormeyster: “Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, biz 2 soat ichida yangi asarlarni o'rganib, konsertda ijro etishimizga to'g'ri keladi. Shunday vaziyatda ijrochining musiqiy xotirasi va shijoati bizga juda ham zarur” – deya yuqoridagi shartlarning zarurligini izohlab berdi. Ishga olganda 3 oy sinov muddati berilishi, yangi asar berilib, uni qanchalik tez va sifatli yetkazib ko'rsata olishiga qaralishini ham gapirib o'tdi.

Hozirgi xor jamoalarida uchrayotgan dolzarb muammolardan biri, talabalarining bilim saviyasi yetarli darajada emasligi, solfedjio, garmoniya darslari musiqa maktablari va kollej-litseylarda yaxshi o'rgatilmaganligidir. Buning natijasida esa talabalar xor qo'shiqlarini kuylashda ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Anglashiladiki, talabalar konservatoriya o'qiyotgan



vaqtidanoq barcha bilimlarni egallashlari va kelajakda yaxshi mutaxassis bo’lib chiqishlari kerak.

Xor bilan yangi asar ishslashda, albatta, tanishish, uni tahlil qilish, avval hamma ovoz bilan kuylab ko’rish va qiyin joylarini alohida ishlab olish yoki ovozlar bilan yakka ishslash kabi jihatlarga e’tibor qaratiladi. Qiyin nota balandliklarini turli xil interval sakrash, gamma, yoki ovoz sozlash mashqlari bilan kuylatib olish orqali o’z natijasiga yetishini bilib oldik.

Kelajakdagi rejalar esa, xalq qo’shiqlarini zamonaviy uslubga uyg’unlashtirilgan xor uchun moslashtirilgan asarlarni kuylash va ommaga taqdim etish. Xor san’atining xalq ichidagi obro’-e’tiborini ko’tarish uchun ko’chalarda har xil fleshmoblar, sahnalarda musiqali teatr, myuzikllar o’tkizish va shunga o’xshash ko’plab g’oyalar taklif qilindi. Ular bergen maslahat va xor bilan ishslash uslublari haqidagi gaplashib, quyidagi xulosaga keldik.

Demak, hozirgi muhim vazifalarimiz xor san’atini rivojlantirish, barcha bilim maskanlarini malakali kadrlar bilan ta’minalash ekan. Xor ijrochiligi orqali xalqimizning milliy an’analarini saqlab qolish, uni ommaga havola etish, kerak bo’lsa, butun dunyo bilan shu yo’l orqali ma’lumot almashish kabi ulkan maqsadlar turganini unutmashligimiz kerak.

Shuni ham aytib o’tish kerakki, kelgusida havaskor va professional xor jamoalarini tashkil etish yo’li bilan xor san’atini ommalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu kishilarimizning musiqiy savodxonligini, ma’naviy saviyasini oshirish uchun hizmat qiladi. Qolaversa, qo’shiqlarni jo’r bo’lib kuylash inson salomatligi uchun ham juda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Husniddinova Y.M. Xor dirijorligi. – Toshkent. 2016.
2. Kadirova S.P. Xorshunoslikning boshlang’ich kursi. - Toshkent. 2015.
3. Ro’ziyev Sh. Xorshunoslik. – Toshkent. 1987.
4. Пигров К.К. Руководство хором. – Москва., 1983. – с.21
5. <https://infourok.ru/user/konkus-elena-borisovna/blog/izvestnye-citaty-mysli-i-aforizmy-o-hore-i-horovom-iskusstve-195220.html>
6. <https://ru.citaty.net/tsitaty/629382-platon-muzyka-voodusheviaet-ves-mir-snabzhaet-dushu-krylia/>
7. <https://allcitations.ru/tema/pro-muzyku>
8. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/eshlar_ittifoqi_eshlar_simfonik_orkestri_uchun_tovarlar_harid_qiladi

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(15-қисм)

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000